



## THE DEVELOPMENT AND THEORETICAL ASPECTS OF MULTILATERAL DIPLOMACY

**Ma'murakhon Asrorkhujaeva**

*Doctor of Philosophical Sciences, PhD*

*Senior Lecturer at the Department of "International Relations"*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** multilateral diplomacy, cultural diplomacy, international organizations, UN, UNESCO, foreign policy, global problems, theories of international relations.

**Received:** 08.10.25

**Accepted:** 09.10.25

**Published:** 10.10.25

**Abstract:** This article analyzes the formation, stages of development, and theoretical foundations of multilateral diplomacy. It is proven that in the context of the transformation of the system of international relations, the interaction of states is increasing, as a result of which multilateral diplomacy is being formed as an important type of diplomatic activity. The article analyzes the scientific views of domestic and foreign scientists, as well as theoretical approaches of realism, liberal institutionalism, and constructivism, based on which the role of multilateral diplomacy in the modern international system is explored. Using the examples of international organizations such as the UN and UNESCO, the SCO, and BRICS, the practical significance of multilateral diplomacy, including its universal and regional forms, is demonstrated. It is concluded that multilateral diplomacy is one of the most effective mechanisms for promoting peace, security, economic development, and cultural ties in the modern era.

## KO'P TOMONLAMA DIPLOMATIYANING RIVOJLANISHI VA NAZARIY JIHATLARI

**Ma'muraxon Asrorxojaeva**

*s.f.f.d. PhD*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*"Xalqaro munosabatlar" kafedrasi katta o'qituvchisi*

---

**MAQOLA HAQIDA**


---

**Kalit so'zlar:** ko'p tomonlama diplomatiya, madaniy diplomatiya, xalqaro tashkilotlar, BMT, YUNESKO, tashqi siyosat, global muammolar, xalqaro munosabatlar nazariyalari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ko'p tomonlama diplomatiyaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va nazariy asoslari tahlil qilinadi. Xalqaro munosabatlar tizimining transformatsiyasi sharoitida davlatlarning o'zaro hamkorligi kuchayib borayotganini, buning natijasida ko'p tomonlama diplomatiya diplomatik faoliyatning muhim turi sifatida shakllangani asoslanadi. Maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari hamda realizm, liberal-institutsionalizm va konstruktivizm nazariy yondashuvlari tahlil qilinib, ular asosida ko'p tomonlama diplomatiyaning zamonaviy xalqaro tizimdagi roli o'rganiladi. BMT va YUNESKO, SHHT, BRIKS kabi xalqaro tashkilotlar misolida ko'p tomonlama diplomatiyaning amaliy ahamiyati, universal va mintaqaviy shakllari ko'rsatilgan. Zamonaviy davrda tinchlik, xavfsizlik, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy aloqalarni rivojlantirishda ko'p tomonlama diplomatiya samarali mexanizmlardan biri ekanligi xulosa qilinadi.

---

**РАЗВИТИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МНОГОСТОРОННЕЙ  
ДИПЛОМАТИИ**

**Маъмурахон Асрорхўжаева**

*Доктор философских наук, PhD*

*Старший преподаватель кафедры «Международные отношения»*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** многосторонняя дипломатия, культурная дипломатия, международные организации, ООН, ЮНЕСКО, внешняя политика, глобальные проблемы, теории международных отношений.

**Аннотация:** В данной статье проанализировано становление, этапы развития и теоретические основы многосторонней дипломатии. Обосновано, что в условиях трансформации системы международных отношений усиливается взаимодействие государств, в результате чего формируется многосторонняя дипломатия как важный вид дипломатической деятельности. В статье анализируются научные взгляды отечественных и зарубежных ученых, а также теоретические подходы реализма,

---

либерально-институционализма и конструктивизма, на основе которых исследуется роль многосторонней дипломатии в современной международной системе. На примере таких международных организаций, как ООН и ЮНЕСКО, ШОС, БРИКС, показано практическое значение, универсальные и региональные формы многосторонней дипломатии. Делается вывод, что многосторонняя дипломатия является одним из эффективных механизмов развития мира, безопасности, экономического развития и культурных связей в современную эпоху.

---

Ma'lumki, har qanday davlat tashqi siyosati uning boshqa davlatlar bilan aloqalarida, ikki tomonlama munosabatlarda aks etadi, biroq xalqaro munosabatlarning transformatsiyasi rivojlanishi davlatlarning tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama hamkorligini jadallashtirdi. Umuman, oxirgi o'n yillikdagi xalqaro holat turli yangi hodisalar va dunyo davlatlarining barchasini qamrab olgan yirik o'zgarishlarga boy bo'lgani tegishli, ular yechimining ham davlatlarning umumiy hamkorligini taqozo qilishi ma'lum bo'ldi, ya'ni universal masalalar universal yechimlarni talab qiladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy diplomatiyani mustahkamlayotgan davlat hisoblanadi. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, o'zaro munosabatlardagi do'stlik aloqalarini jadallashtirish va jahon siyosatining markazlaridan biriga aylantirishda ko'p tomonlama hamkorlikning, shuningdek, diplomatiyaning ko'p tomonlama shakli bo'yicha tadqiqotlarning prinsipial ahamiyatini ko'rsatadi.

Xalqaro munosabatlarda davlatning farovonligi hamda davomiy rivoji uchun nizolarni butunlay mustasno etish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turli davr mutafakkir olimlarining qarashlari o'rganilgan adabiyotda diplomatiyani aynan shu muhim vazifani amalga oshirishning asosiy vositasi ekanligi xulosa qilingan [1]. Shu sababli, mohiyati va istilohdagi vazifasi keng hisoblangan ko'p tomonlama diplomatiya fenomenining aniq ta'riflarini keltirib, uni tadqiq etishning nazariy jihatlarini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diplomatiya qadimdan urushlar va bosqinchiliklardan kuchliroq hodisa bo'lib maydonga chiqqani uchun afzal ko'rilgani kuzatiladi. Masalan, G. Hidoyatov, diplomatiyani, ilk suveren davlatlar tashkil topishi bilan yuzaga kelganini ta'kidlab, munosabatlarda asosan urushlar, boshqa davlatni talon-taroj qilishlik hukmron bo'lgan bir davrda – o'zaro hamkorlikning ancha ustun jihatlarini ma'lum bo'lganidan boshlab, asosiy vositaga aylanganini ta'kidlaydi [2]. Keyinchalik

madaniy rivojlanish, uygʻonish, qisqasi – sivilizatsiyalarning ilk shakllanish bosqichida boshqa hududlardagi taraqqiyot yutuqlari bilan boʻlishish, oʻzaro almashinish yoʻlga qoʻyilgan.

Zamon va makon talablariga koʻra diplomatiya ham kengayib, turlari koʻpayib bordi. Aslida gumanitar sohada zamonaviy tushunchasining oʻzi shartli ekanini ham keltirib oʻtish joiz. Agar shu sohaga oid adabiyotlar yoki hodisalarni kuzatilsa, qaysi davrga oid boʻlmasin, oʻsha paytda uni “zamonaviy” deb koʻrsatiladi. Yaʼni, har qaysi davr uchun zamonaviy tushunchasi moslashuvchan va doimiy dinamikadagi sifatni ifodalovchi atama hisoblanadi. Demak, diplomatiyaning ham yangi turlari aynan davrga moslashish, davr bilan hamnafas ravishda faoliyat yuritishi shartidir, fikrimizcha.

Diplomatiyaning qay bir turi boʻlmasin, uning asosiy maqsadi – munosabatlarni jadallashtirish, tashqi siyosiy maqsadlarni amalga oshirish, manfaatlarni himoya qilish sanaladi. “Diplomatiyaning mohiyati (Essence of diplomacy)” kitobida, diplomatiya – xalqaro munosabatlar sohasida asosan oʻzining muloqot funksiyasi, vakillik funksiyasi, xalqaro hamjamiyatni tashkil etish funksiyalari[3]da namoyon boʻlishi keltirilgan. Bunga qoʻshimcha sifatida, diplomatiyaning funksiyalari uning yuqoriroqda keltirib oʻtilgan yangi zamonaviy turlarining ham asl mohiyati va vazifalarini ochib beradi. Masalan, koʻp tomonlama diplomatiya – aynan xalqaro hamjamiyatni tashkil etuvchi asosiy vosita ekanligi yaqqol koʻzga tashlanadi.

S.Sharapovning taʼkidlashicha, diplomatiya – davlat tomonidan uning tashqi siyosatini amalga oshirishdagi tinchlik vositalari va faoliyat turlari boʻlib, koʻp tomonlama diplomatiya bu – tashqi siyosatni xalqaro tashkilotlar va davlatlararo uyushmalarda amalga oshirishdir [4], shu nuqtai nazardan, koʻp tomonlama diplomatiya, xalqaro munosabatlar subyekti yoki aktori hisoblanmish xalqaro tashkilotlarning eng birlamchi vositasi ekanligi kuzatiladi.

Diplomatik atamalarga oid lugʻatda, koʻp tomonlama diplomatiya – ikkidan ortiq davlat yoki ishtirokchilarni oʻzida mujassam etuvchi millatlararo muammolarga diplomatik yechimlarni topish jarayoni [5] deya taʼrif keltiriladi. Koʻp tomonlama diplomatiya uch va undan ortiq davlatning muayyan masala yoki masalalar yuzasidan xalqaro, hukumatlararo tashkilotlar va birlashmalardagi ishtirokini, faoliyatini anglatadi [6]. Zamonaviy diplomatiya modeli aslida, koʻp tomonlama diplomatiya modeli asosida shakllanganini ilgari surgan olimning fikriga koʻra, kuchlar muvozanati koʻp tomonlama kelishuvlarni taqozo etadi. Koʻp tomonlama diplomatiyaning eng faol shakli davlatlarning koʻp tomonlama shartnomalari asosida qurilgan xalqaro tashkilotlarda aks etadi [7].

I.Mavlanovning tadqiqot ishida koʻp tomonlama diplomatiyaning evolyutsiyasi avvalo, xalqaro konferensiya va kongresslardan boshlanib, Millatlar Ligasining tashkil topishi, soʻngra BMT tashkil etilishidan iborat ekanligi taʼkidlanib, XX asrdan xalqaro tashkilotlar soni ortishi koʻp tomonlama diplomatiyaning faollashuviga va koʻp tomonlama iqtisodiy diplomatiyaning

asoslari yaratilishiga sabab bo'lgani o'rganilgan [8]. Y.Zinovskiy ko'p tomonlama diplomatiyaning o'ziga xos o'rni, ayniqsa, zamonaviy davrda tinchlikparvarlikni o'rnatish jarayonida yorqin sezilishini ta'kidlaydi [9]. Manbalarda, ko'p tomonlama diplomatiyaning ilk ko'rinishi va eng yorqin misoli sifatida, 1648-yildagi Vestfal dunyosining bir necha tayyorgarlik yillari keltirib o'tilgan [10]. S.Sh.Sharapova ham, ko'p tomonlama diplomatiya, dastlab, bir qancha davlatlarning rasmiy vakillari uchrashuvidan iborat bo'lganini keltirib o'tib, 1899-yildan 1907-yilgacha bo'lgan davrdagi konferensiyalarni o'z ichiga olgan Gaaga tizimini misol keltirgan [11]. Bu misollar ko'p tomonlama diplomatiyaning avval konferension shaklda namoyon bo'lganini tasdiqlaydi.

Diplomatiya doimiy yosh va ayni paytda qadimiy fenomen sifatida qirol, hukmdorlarning o'zaro munosabatlarida faqat oliy darajada qo'llanilgan bo'lsa, taraqqiyot va amaliyot – diplomatiyadan foydalanishning bu tor shakli qo'yilgan maqsadga erishishdan ko'ra ko'proq xavfliligi bilan xarakterlanishini ko'rsatdi. Diplomatiyaning zamonaviy turlari deb ta'rif berilayotgan hozirgi shakllari paydo bo'lishi uchun keltirilgan xavflar yuzaga kelishi sabab bo'lgan va davlatlar o'rtasi sayohat va almashinuvlarning faollashuvi muhim omillardan bo'lgan deya ta'kidlash mumkin.

Ko'p tomonlama diplomatiya – o'zaro munosabatlarda umumiy nuqtasi mavjud bo'lgan davlatlar hamkorligi sifatida ta'riflanadi [12]. Masalan, bu qadimda odatlar yoki yagona dinga e'tiqod qiluvchi davlatlarning aloqalarida yorqinroq kuzatilgan. Buning aksi, ya'ni dinning ta'sirida kelishmovchiliklar o'choqlarining ham vujudga kelgani, ko'p tomonlama diplomatiyaning rivoji uchun qulay sharoitni keltirib chiqarmagan. Yana bir tadqiqot ishida ko'p tomonlama diplomatiyaga – xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va konferensiyalar, muzokaralar, maslahatlashuvlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan bir qancha mamlakatlar vakillari ishtirokidagi diplomatik faoliyat deya ta'rif keltiriladi va yuqoriroqda keltirilganidek avval kongress va konferensiyalar bilan boshlanib, XX asrdan boshlab uning institutsionallashuvi jarayoni boshlangan [13].

Shunday qilib, ko'p tomonlama diplomatiyaning shakllanishi uchun, avvalo, Vestfal tizimi – o'zining suveren davlatlar tushunchasini kiritishi bilan, so'ng esa Vena kongressi legitimlik tushunchasi bilan eng muhim davrlar bo'lib xizmat qilgani kuzatiladi. Sovuq urush davri va urushdan keyingi o'n yillik davr xalqaro munosabatlari yoritilgan "Xalqaro munosabatlarning bipolyar tizimidagi ko'p tomonlama diplomatiya" nomli to'plamda, avvalo, Vena tizimi, Gaaga konferensiyalari so'ngra Millatlar Ligasi va BMTning tashkil topishini ko'p tomonlama diplomatiyaning evolyutsiyasi deb ta'kidlanadi [14].

Ma'lumki, Millatlar Ligasi keyingi Jahon urushiga to'sqinlik qila olmadi, ammo talofotli Ikkinchi jahon urushidan to hozirga qadar effektiv bo'lib kelgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti

(BMT)ni tuzilishiga olib keldi. Bu tashkilot tarixning zamonaviy xalqaro munosabatlar uchun katta hadyasi va birdamlik madaniyatining katta yutug'i bo'lganiga amaliyot va fan guvoh bo'lmoqda. Sababi, BMT butun insoniyatning oldida turgan, yechimi o'ta dolzarb bo'lgan vazifalarni davlatlarning deyarli barchasini qamrab olib amalga oshirish salohiyatiga ega universal, yirik global xalqaro tashkilotdir.

Davlatlarning tashkilotlar doirasidagi madaniy ko'p tomonlama diplomatiyasi qisman o'rganilgan tadqiqot ishida ko'p tomonlama diplomatiya tashqi siyosatning boshqa vositalariga (harbiy, siyosiy va b.) qaraganda xavfsizligi, munosabatlarni yaqinlashtirish yoki manfaatlarni himoya qilishning faqat ijobiy elementlar orqali ta'minlanishi bilan farqlanishi keltirilgan [15]. Adabiyotlarda ko'p tomonlama diplomatiya asosan, ikki yirik turga bo'linganini kuzatish mumkin [16]. 1. Institutsional ko'p tomonlama diplomatiya. Diplomatiyaning xalqaro tashkilotlar doirasida doimiy vakillar (va kuzatuvchi davlatlar) ishtirokidagi turi bo'lib, xalqaro tashkilotlarning qaysi turiga mansubligiga ko'ra ko'lami ham belgilanadi. 2. Konferentsion ko'p tomonlama diplomatiya. Shu bilan birga, institutsional va konferentsion ko'p tomonlama diplomatiya – global va mintaqaviy darajalarga ajratiladi.

Ko'p tomonlama diplomatiya murakkab, bir butun tizim sifatida bir qator unsurlarni o'zida mujassam etadi. Nazarimizda, uning tarkibiy elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ko'p tomonlama diplomatiyani vujudga keltiruvchi eng asosiy unsur – Davlatlar(yoki Davlat vakillari);
- davlatlar ko'p tomonlama diplomatiyasini amalga oshirishi uchun makon yaratuvchi – Xalqaro tashkilotlar va konferensiyalar;
- umumiy maqsadlar;
- davlat manfaatlari;
- global/mintaqaviy/maxsus muammo va masalalar;
- xalqaro huquq normalari, qoida va hujjatlari;
- xalqaro shartnoma, kelishuv, pakt, rezolyutsiya, taklif kabilarni keltirib o'tish mumkin.

Shu o'rinda, oxirgi voqea hodisalar, tinimsiz o'zgarayotgan xalqaro vaziyatdan kelib chiqqan holda, eng muhim unsurlardan hisoblanuvchi yana bir kategoriya borki, ushbu ro'yxatda davlatlardan so'ng turishi ham ehtimoldan holi emas. Bu – xalqaro o'zaro hurmat va tenglik prinsiplaridir.

Ko'p tomonlama diplomatiyani ba'zi adabiyotlarda konferentsion diplomatiya deya keltiriladi [17]. Konferensiyalar ham aynan ko'p tomonlama diplomatiyani amalga oshirish maydoni bo'lib xizmat qiladi. Ular ham o'z ko'lami, vazifasi va xususiyatlari bilan bir biridan ajralib turadi. Tashkilotlar doimiy va shuningdek vakillarning doimiyligi maqomi bilan xarakterlansa, konferensiyalar davriy hisoblanadi. Konferensiyalar muayyan masala bo'yicha

o'tkazilib turiladi va tegishli ishtirokchilari va davlatlar vakillari nuqtai nazaridan torroq hisoblanadi.

Davlatlararo hamkorliklarni taqozo etuvchi tabiiy bog'liqliklar bilan birga ommaviy/biologik qirg'in qurollarining tarqalishi, atrof muhit va ekologiya buzilishi yoki barbod qilinishi, global isish, ochlik, savodsizlik, funksional savodsizlik kabi taraqqiyotning doimiy muammolari ham mavjud va ularning soni kengayib bormoqda [18]. Ularning ko'lamiga ko'ra farqlanishini kuzatish mumkin, masalan global muammolar, mintaqaviy muammolar yoki muayyan davr taqozo etgan – spetsifik muammolar shular jumlasidan hisoblanadi.

Ko'p tomonlama diplomatik munosabatlarni, hamkorliklarni xalqaro huquq prinsip va normalari, xalqaro tashkilotlar nizomlari va maxsus qoidalar tartibga soladi. Effektiv ko'p tomonlama aloqalar – doimiy ravishda – qoidalarga bo'ysunish demakdir. Demak, yuqoridagi ta'riflarni va ko'p tomonlama diplomatiyaning barcha xususiyatlarini umumlashtirib, uning quyidagi 3 xil turini ajratib ko'rsatishni taklif etish mumkin. Bularga,

1. Konferension-davriy ko'p tomonlama diplomatiya;
2. Maxsus masalalar bo'yicha muzokaralar jarayonidagi muvaqqat ko'p tomonlama diplomatiya;
3. Xalqaro tashkilotlar doirasidagi doimiy ko'p tomonlama diplomatiya.

I.Mavlanov xorijlik olimlarning ko'p tomonlama diplomatiya borasidagi qarashlarini iqtisodiy nuqtai nazardan o'rganib, zamonaviy xalqaro munosabatlarda ko'p tomonlama diplomatiyaning va tegishli ko'p tomonlama iqtisodiy diplomatiyaning dolzarblashuvi hamda rivojlanishiga nafaqat dunyo davlatlarining o'zaro bog'liqligi, global muammolar sabab bo'ladi, balki bunda xalqaro maydonda manfaatlari, milliy o'ziga xosliklari, rivojlanish darajasi o'zgacha bo'lgan yangi aktorlarning faollashuvi ham rol o'ynashini keltiradi [19].

Yuqoridagi qarashlarni umumlashtirib, ko'p tomonlama diplomatiya – ikkidan ortiq davlatlarning aniq va umumiy maqsadda xalqaro tashkilot va konferensiyalarda birgalikdagi hamkorliklarini o'zida mujassam etgan diplomatiyaning qadimdan shakllanib kelgan va nihoyat eng dolzarb turi deya ta'rif berish mumkin.

Xalqaro munosabatlarning bugungi transformatsion davrida ko'p tomonlama diplomatiyaning ahamiyatini liberal institutsionalizm nazariyasi vakillari har biri o'z qarashlarida ochib bergan. Masalan, avstriyalik nazariyotchi, Djon Raggi o'zining "BMT va globalizatsiya" [20] nomli maqolasida, davlatlarning turli masalalarda guruh bo'lib faoliyat yuritishlari joriy asr shartlaridan biri bo'lib hisoblanishini keltiradi. Ko'p tomonlama diplomatiyani globalizatsiya jarayonida tinchlik, barqarorlikni ta'minlashdagi rolini BMT va uning tizimidagi tashkilot hamda muassasalar doirasida ko'rib chiqib, global masala va tahdidlarning yechimida undan foydalanish natijadorligini ilgari suradi.

Realizm yondashuvi vakili G.Morgentau ko'p tomonlama diplomatiyaning murakkab va o'zaro bog'liqlik kuchli bo'lgan davrda davlatlar tashqi siyosatida qo'llash mumkin bo'lgan muhim vositalardan biri borasidagi qarashlarini "Millatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar. Hokimiyat va tinchlik uchun kurash" nomli asarida ta'kidlab o'tadi [22]. Ko'p tomonlama diplomatiya – an'anaviy ikki tomonlama diplomatiyadan farqli o'laroq davlatlarning birdamlikda turli maqsadlarni amalga oshirishning yengil yo'llaridan biri ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Ammo ko'p tomonlama diplomatiyaning kamchiligi sifatida tomonlarning ko'pligi hamda tashkiliy jihatlarining murakkabligi bilan katta muhlatni talab qilishini qo'shimcha qiladi.

Xalqaro munosabatlar nazariyasida "hujumkor realizm" yo'nalishiga asos solgan olim Dj. Mirshaymer – ko'p tomonlama diplomatiyaning xususiyatlari borasida to'g'ridan to'g'ri tadqiqot olib bormaganiga qaramay, ilmiy faraz va g'oyalari bilan ko'p tomonlama diplomatiya fenomenini realizm prizmasidan o'rganishga katta hissa qo'shgan. Realizm yondashuvining navbatdagi vakili sifatida G.Morgentau yondashuvidan farqli ravishda davlatlarning xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyasi borasidagi nazariyalarni rivojlantirgan. Xususan, "Xalqaro institutlarning yolg'on va'dasi" asarining xulosasiga ko'ra – xalqaro munosabatlar fani va amaliyotida institutlarga nihoyatda katta urg'u beriladi, vaholangki, ta'kidlangani kabi xalqaro institutlarning biror davlat xatti-harakatlariga mustaqil ta'sir qilolmasligiga empirik dalillar yetarli darajada. Institutlar o'z imkoniyatlari doirasida davlatlarga cheklangan darajada ta'sir kuchiga ega va global tinchlikning asosiy sharti sifatida xalqaro birlashma va institutlar keltirilishiga shubha va tanqidiy yondashish to'g'ri bo'ladi[23].

Dj.Mirshaymerning ushbu asari, avvalo, xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyaning davlatlar aynan tashqi siyosati vositasi ekanligini, mushtarak maqsadlarga hamkorlikda intilish uchun kuchli ko'makchi ekanini yaqqol ochib berganini kuzatish mumkin.

Neorealist oqimi vakillaridan biri, Kennet Uolts o'z qarashlarida xalqaro munosabatlar transformatsiyaga uchraganda, siyosiy tizimlarning o'zgarishida ularni tartibga solishning qanday amalga oshirilishini tadqiq etadi. Davlatlar chegaralarini oshib o'tuvchi har qanday masalaning umumiylikni e'tirof etgan holda jahon siyosatida ko'p tomonlama hamkorlik rolining kuchayishini ta'kidlaydi [24]. Shuningdek, olimning davlatlar tashqi siyosiy strategiyalarini o'rganishdagi nazariyalari orasida ikki xil konsepsiya ko'p tomonlama diplomatiyaning istilohdagi ahamiyatini o'rganishda katta yordam beradi. Davlatlarning "ichki va tashqi muvozanatlashuvi" (internal and external balancing [25]) – ular imkoniyatlari va manfaatlariga qarab sodir bo'ladi. Birinchisi, muayyan sohalarida, harbiy, texnikaviy va h.k.da o'z salohiyatini oshirishi, isloh qilishi bo'lsa, ikkinchisi, davlatlarning boshqa aktorlar bilan turli birlashmalarga rasmiy yoki norasmiy a'zo bo'lishini nazarda tutadi. J.Nay o'z asarlarida neoliberal konstruktivizmning xalqaro munosabatlar doirasidagi ahamiyati borasidagi 3 asosiy jihatini ajratib ko'rsatadi.

1. Aktorlar va xalqaro tuzilmalar. Neoliberal konstruktivizmning bu jihatida borasida “Liderlikka mahkum: Amerika kuchining o‘zgaruvchan tabiati” nomli asarida batafsil to‘xtalgan bo‘lib, tobora ahamiyati yuksalayotgan aktorlar va tuzilmalarga e‘tibor qaratgan. Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi yetakchi davlatning xalqaro munosabatlarda o‘z o‘rnini mustahkamlashida ham “yumshoq” ham “qattiq” kuchdan foydalanishi maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan [26].

2. Kuch va o‘zaro bog‘liqlik. Nay, “yumshoq kuch” konsepsiyasini tanishtirgan bo‘lib, u an’anaviy “qattiq kuch”ning harbiy va iqtisodiy vositalarini to‘ldirishini keltiradi. Yumshoq kuch – o‘ziga jalb qilish va ishontirish orqali imtiyozlarni shakllantirish va manfaatlarni moslashtirish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Asosiysi, Nay ushbu kitobida madaniyatni yumshoq kuchning eng asosiy vositasi sifatida ko‘rib chiqadi. “Yumshoq kuch. Jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari” [27] nomli asarda davlatlarning harbiy va iqtisodiy majburlovdan farqli o‘laroq madaniyati, qadriyatlari, siyosati boshqa davlatlariga ta’sir qilishi yoki diqqatini jalb qilishi mumkinligini o‘rgangan.

3. Murakkab tarkibli o‘zaro munosabatlar. Jozef Nay xalqaro munosabatlar nafaqat mustaqil va alohida davlatlar to‘plamidan, balki o‘zaro bog‘liq munosabatlar va umuman o‘zaro bog‘liqlik to‘rini ham o‘z ichiga olishini ilgari suradi. Globallashtan hayotda kuch va hokimiyatning o‘zgaruvchan tabiati borasida bahs etib, kuch va hokimiyat harbiy va iqtisodiy vositalar va boshqalarni diplomatiya, madaniyat va g‘oyalar orqali ishontirishga asoslanadi. Nay shuningdek, tarmoq kuchi tushunchasini muhokama qiladi, bu aktorlarning tarmoqlar orqali resurslar, ma’lumotlar va munosabatlarni safarbar qilish va tashkil etish qobiliyatini anglatadi. Ushbu tarmoqlar rasmiy yoki norasmiy bo‘lishi mumkin hamda davlat va nodavlat ishtirokchilarni jalb qilishi mumkin [28].

Ma’lumki, fanda nazariya hech qachon tugallanmaydi, yuqorida keltirilgan nuqtai nazarlarning asosiy o‘ziga xosligi faqatgina manfaatlarni ilgari surish, o‘z suvereniteti hamda iqtisodiy xavfsizligi yo‘lida yetakchi davlatlar bilan tashkilot yoki birlashmalarga qo‘shilish emas, balki xalqaro munosabatlarning hozirgi vaqtda, yoki aniqroq aytganda, shu davrda yuzaga kelgan masalalarni talab qilayotgan usul va vositalar orqali hal etish, aniq masalaga aniq yechim taqdim etishdan iboratligi kuzatildi. Neoliberal va konstruktivist oqimlari xalqaro tashkilotlarning xalqaro munosabatlarning muhim subyekti ekanini, bunda ko‘p tomonlama diplomatiyaning tegishli faol shakli bo‘lib qolishini ta’kidlaydi. Umuman olganda har bir yondashuv va maktabning davlatlarning tashqi siyosatida ko‘p tomonlama diplomatiyani amalga oshirishning o‘ziga xos jihatlarini u yoki bu taraflama ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ularni o‘zaro aslo inkor etmagan holda bir birini to‘ldirishi ushbu fenomenning rivojlanishiga hissa qo‘shadi, zamonaviy xalqaro munosabatlarning yangi tahdid va imkoniyatlaridan foydalanishda maqbul vositalardan biri ekani yondashuv vakillari tarafidan va ular yo‘nalishi darajasida o‘rganiladi.

Ko'p tomonlama diplomatiyaning shakllanishi va rivojlanishi uchun Millatlar Ligasi asosida aynan Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil topishi katta qadam bo'lgan. Bir qancha davlatlarni muayyan masalalar yechimi bo'yicha birlashuvi, ya'ni ko'p tomonlama diplomatiya faoliyatining ilk maydoni BMT bo'lib, so'ng XX asr oxiri XXI asr boshlaridan tegishli masalalar doirasida davlatlarning birlashuvi boshlanganini keltirib o'tadi va bularga G20 (Katta yigirmatalik), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi, Osiyo Tinch Okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Shanhay hamkorlik tashkiloti, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, BRIKS(Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika) va boshqalarni misol qilib keltiriladi [29].

Birinchi jahon urushi davrida va ayniqsa, Ikkinchi Jahon urushlaridan so'ng ko'p tomonlama diplomatiya dolzarb ahamiyat kasb etib boshlaganini, xalqaro munosabatlar va davlatlar tashqi siyosatida tobora faol foydalangani "Diplomatiya alifbosi" nomli adabiyotda ta'kidlanadi. Bu faollikning sababi sifatida, avvalo, kolonizatsiya tizimi tugatilgani va suveren davlatlarning soni ko'payib borgani ekani ko'rsatiladi. Ikkinchidan, davlatlar, insoniyat duch kelayotgan yangi vazifalarning miqdori va ularning rang barangligi nuqtai nazaridan eng maqbul hamkorlik, albatta oliy maqsad sari birlashish fikri ostida faoliyat yuritishni boshlaganlari ko'rsatiladi [30].

Xorij adabiyotlarida, zamonaviy davr diplomatiyasi amaliyotida aynan ko'p tomonlama diplomatiya faol ekanligi keltiriladi. Hozirgi paytda shunday masalalar shakllanmoqdaki, ular yechimiga shoshilinch ehtiyoj mavjud bo'lib, bu masalalarda, birinchidan, davlatlarning birgalashib harakat qilishlari, ikkinchidan, bunda xalqaro tashkilotlarning nafaqat ishtirok eta olishi, balki ishtirok etishi shartligi ko'rsatiladi [31]. Shunday makon hozirgi kunda universal hisoblanmish BMT yordamida yaratilgan. BMT – dunyodagi doimiy diplomatik konferensiya [32] hisoblanib, ko'p tomonlama hamkorlikni yangi pog'onaga olib chiqqan, oldingi tizimdan dunyoning yangi tizimiga kirib kelgan o'ziga xos tashkilot.

Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat butun dunyo mamlakatlarining hamjihatlikda ish olib borishini taqozo etmoqda. Alalxusus, yangi pandemiya davri, uning ko'rsatgan ta'siri va kelgusidagi asoratlari muayyan tartibotlar yoki mavjud bo'lgan sharoitlarni o'zgartirgani, butunlay yangi yondashuvlarni taqozo etayotgani buning isboti bo'la oladi. Shu bilan birga taraqqiyotning doimiy masala va tahdidlarining ham hamon o'z kuchida ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim. Masalan, globallashtirish jarayoni – ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni hamda transport va telekommunikatsiya aloqalarini rivojlantirishni, umuman, hamkorlikning barcha shakllarini rivojlantirishni taqozo etadi. Terrorchilik, ekstremizm, qurol-yarog' kontrabandasi, ommaviy qirg'in qurollari tarqalishining oldini olishni, savodsizlik va ochlik kabi taraqqiyot yo'lto'sarlari hisoblanuvchi, o'zaro bog'liqligi va global darajada qamrovli

barcha turdagi masalalarni birgalikda, umumiy yechimlar yordamida hal etishni, siyosiy aloqalarni yanada rivojlantirishni talab qilmoqda.

Shunday qilib, ko'p tomonlama diplomatiyaning asosiy omili – yuqorida keltirib o'tilgan barcha masalalar yuzasidan kollektiv faoliyatning yuqori darajada mahsuldor ekani va zamonaviy dunyoda diplomatiyaning ushbu turini hayotga tatbiq qilish, buning uddasidan chiqishning ayni vaqti ekanidan iborat. Shu o'rinda ko'p tomonlama diplomatiyaning bugungi kun yangilanishlari bilan hamnafasligi va yuqorida keltirib o'tilgan funksiyalariga muvofiqligi avvalgi davr diplomatiyasidan tubdan farq qilishini, faoliyatining yanada murakkablashganini ham ko'rsatadi. Xalqaro tashkilotlar – ko'rib chiqilayotgan diplomatiya shaklini amalga oshirish maydoni hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar ko'lamini, maqsadi, xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Bu yerda xususiyati deb, uning qaysi sohalarda yaqindan hamkorlikni amalga oshirish maqsadida tuzilgani nazarda tutilgan. Masalan, BMTning fan, ta'lim, madaniyat sohasidagi ixtisoslashtirilgan tashkiloti – YUNESKOning asosiy xususiyati davlatlar o'rtasida tinchlikni ta'minlashda ularning ishtirokida ushbu sohalarni rivojlantirishdan iboratdir.

Ko'p tomonlama diplomatiyaning vositalari sifatida, yuqori darajadagi uchrashuvlarni, turli darajadagi muzokaralar, konferensiyalar, kongresslar, kengashlarni keltirib o'tish mumkin. Bu borada BMTning vakolat doirasi ta'lim va madaniyat chorrahasida joylashgan maxsus muassasasi YUNESKOning o'ziga xos yondashuvlari borligini amaliyotda kuzatish mumkin. Ya'ni YUNESKO shafeligida o'tkaziluvchi madaniy tadbirlar muayyan vazifalarni amalga oshirishda ahamiyatli vosita bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ushbu xalqaro madaniy tadbirlar YUNESKO maqsadlarini amalga oshirishda tashkilot doirasidagi ko'p tomonlama diplomatiyaning effektiv vositasi ekanligini tashkilotning shakllanishi va hozirga qadar bo'lgan faoliyati ko'rsatib kelmoqda.

Insoniyat oldida turgan ulkan masala va tahdidlarni o'rganish va ko'p tomonlama yechim topishdagi o'rni borasida Tashkilot Bosh direktori Odri Azule "Hozir haqiqat onidir, bizning ustimizdagi mas'uliyat uchun haqiqat oni. YUNESKOga har qachongidan ham ko'proq ehtiyoj sezilgan bir davrdamiz" deb ta'kidlaydi [33]. YUNESKO kabi xalqaro (global) tashkilotlarning tobora ortib borayotgan ahamiyati "Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining faol ishtirokchilari – xalqaro, mintaqaviy, maxsus tashkilotlar milliy, mintaq va xalqaro darajadagi xavfsizlik hamda davlatlarning turli sohalardagi taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanishida" [34] ko'rinadi.

YUNESKO Ustavi preambulasiga, YUNESKO tuzuvchilaridan biri hisoblanmish Archibald Mak-Lishning (1944-1945-yillarda AQSH davlat Kotibi yordamchisi) "Urush – insonlarning ongida paydo bo'lar ekan, tinchlikni himoya qilishni avvalo insonlar ongida o'rnatish kerak" ekanligi borasidagi so'zlari kiritilgan [35]. Olib borilgan tahlillar natijasida ko'p tomonlama

diplomatiya – jahon urushlari, o‘zaro nizolarni oldini olishga qodir bo‘lgan asosiy vositalardan ekanligi ma’lum bo‘ldi. Demak, YUNESKO aynan ko‘p tomonlama diplomatiyaning vazifasini bajarish va bu vazifani ilgari surish qobiliyatiga ega universal xalqaro tashkilot hisoblanadi. BMT, uning tizimidagi ixtisoslashgan muassasalar 80 yillik davr mobaynida davlatlarning turli sohalardagi ko‘p tomonlama diplomatiyasini amalga oshirish maydonini ta’minlab berdi. Ko‘p tomonlama diplomatiyaning global muammolarni birdamlikda hal etish, xalqaro maydonda tinchlikni ta’minlash funksiyalari dunyoning o‘zgaruvchan dinamikasida ham turli masalalarda konsensus maydoni vazifasini bajarib, o‘z dolzarbligini yo‘qotmadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Хидоятлов Г. История дипломатии. Т.: Зар қалам, – 2004. – С.8
2. Хидоятлов Г. История дипломатии. –Т.: Зар қалам, – 2004. – С.7
3. Jönsson Ch., Hall M. Essence of diplomacy. – New York: Palgrave Macmillan, 2005. – P.5.
4. Шарапова С.Ш. Многосторонняя дипломатия Республики Узбекистан: участие в универсальных, региональных и субрегиональных организациях, межгосударственных объединениях: Дисс. ... д-ра полит. наук. – Т., 2006. – С.36.
5. 6 The Oxford Handbook of modern diplomacy / Cooper A. F. Jorge Heine, and Ramesh Thakur, eds. – Oxford: Oxford University Press, 2013. –P.248.
6. O‘sha manba. – С.37.
7. Зонова Т.В. Дипломатия: модели, формы, методы: учебник для Вузов. – М.:Аспект пресс., 2014. –С.108.
8. Мавланов И.Р. Концепции и модели становления и развития многосторонней экономической дипломатии // Халқаро муносабатлар. Международные отношения/ International affairs. – 2016. – №4. – С. 66–78.; Зиновский Ю.Г. Многосторонняя дипломатия и миротворчество в условиях современного мира // Вестник МГИМО–Университета. – 2010. –№15. –С. 65–74.
9. Зиновский Ю.Г. Многосторонняя дипломатия и миротворчество в условиях современного мира // Вестник МГИМО–Университета. – 2010. –№15. –С. 65–74.
10. Мавланов И.Р. Концепции и модели становления и развития многосторонней экономической дипломатии // Халқаро муносабатлар. Международные отношения/ International affairs. – 2016. – №4. – С. 66–78.; Зонова Т.В. Дипломатия: модели, формы, методы: учебник для Вузов. – М.:Аспект пресс., 2014. – С.108.
11. Шарапова С.Ш. Многосторонняя дипломатия Республики Узбекистан: участие в универсальных, региональных и субрегиональных организациях, межгосударственных объединениях: Дис. ... д-ра полит. наук. – Т., 2006.– С.4.

12. Thakur R. Multilateral Diplomacy and the United Nations: Global Governance Venue or Actor? / Ed. by J.Muldoon, J.Fagot Aviel, R. Reitano and E. Sullivan, The New Dynamics of Multilateralism: Diplomacy, International Organisations, and Global Governance . – Westview Press.– 2011. –266 p; Melnikova O.A. Osnovnye zadachi informatsionnogo obespecheniya vneshnepoliticheskoy deyatel'nosti // Vestnik MGIMO–Universiteta. – 2015. –№ 2. – P. 86–93.
13. Мавланов И.Р. Концепции и модели становления и развития многосторонней экономической дипломатии // Международные отношения – научный журнал УМЭД. –2016. –№ 4. – С.–67.
14. Многосторонняя дипломатия в биполярной системе международных отношений (сборник). Введение. Электрон манба. URL: <https://www.litres.ru/book/raznoe-4340152/mnogostoronnyaya-diplomatiya-v-bipolyarnoy-sisteme-mezhduna-24160710/chitat-onlayn/>
15. Федотова К. Культурные аспекты внешней политики Российской Федерации (на примере сотрудничества с ЮНЕСКО) автореф. дисс.на сои– с.уч.степ.канд.полит.наук. М. –2017. – С. 16.
16. Андрияйнен С.В., Асадов Б.Р., Синова И.В. Внешняя политика России: история и современность. СПб. 2016. – С. 36., Егоров В.П. Дипломатический протокол и этикет: учеб. пособие. М.: Юридический институт МИИТа, –2013. – С.83.
17. Мехдиев Э.Т. Роль многосторонней дипломатии в условиях глобализации на примере ОБСЕ. //Вестник Пермского университета. Серия: История. –2009. – №. 3.– С.87.
18. Юнгблуд В.Т. Многосторонняя дипломатия в биполярной системе международных отношений //Новая и новейшая история. Введение. – М., – 2014. – №. 3. – С. 226–229.
19. Мавланов И.Р. Концепции и модели становления и развития многосторонней экономической дипломатии // Международные отношения – научный журнал УМЭД. –2016. – № 4. – С. 66–77.
20. Ruggie J.G. The United Nations and globalization: Patterns and limits of institutional adaptation // Global Governance. – 2003. – P 9.
21. Morgenthau H.J., Thompson K.W. & Clinton W.D. Politics among nations: The struggle for power and peace. –New York: Alfred A. Knopf, –1985. – P.299.
22. Mearsheimer J.J. The false promise of international institutions // International security. –1994. – № 5. – P.49–47.
23. Waltz K.N. Theory of International Politics. – New York: McGraw Hill, –1979. – P.210.

24. O'sha yerda.
25. Russett B. Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. By Joseph S. Nye Jr. New York: Basic Books, 1990. 370p. // American Political Science Review, –1990. – № 4. – P.1400–1401.
26. Nye J. Soft Power. The Means to Success in World Politics. – New York: Public Affairs, – 2004. – 209 p.
27. Nye J.S. The future of power. – New York: Public Affairs, – 2011. – 320 p.
28. Лебедева О. Многосторонняя дипломатия в современных международных отношениях // Право и управление. XXI век//Электронное издание МГИМО. – № 1. – 2015. – С.86 .
29. Bichet E. ABC of diplomacy. – Bern: The Swiss (DFA), – 2001. – P.4.
30. Попов В.И. Современная дипломатия: теория и практика: Курс лекций. – М.: Научная книга, – 2000. – С.97.
31. Фельдхам Р.Дж. Настольная книга дипломата. Перевод с английского 4е издание. – М.: Новое издание, – 2004. – С.93.
32. “ЮНЕСКО сегодня необходима как никогда” – заявила Одри Азуле. Электрон манба. URL: <https://www.unesco.org/ru/articles/yunesko-segodnya-neobkhodima-kak-nikогда-zayavila-odri-azule>
33. Рахимов М. Современные многосторонние отношения в Центральной Азии: Монография. – Т.: «Фан», 2020. – С.4.
34. Elektron manba. Коротко о ЮНЕСКО: Миссия и мандат. URL: <https://ru.unesco.org/about-us/introducing-unesco>.